RESPUBLIKA SPORT TIBBIYOTI ILMIY-AMALIY MARKAZI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.10/30.12.2019.Tib.69.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

RESPUBLIKA SPORT TIBBIYOTI ILMIY-AMALIY MARKAZI

QUVVATOVA ZILOLA RISQUL QIZI

BOKSCHILARDA O‘Z-O‘ZINI BOSHQARISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

19.00.04 – Tibbiy psixologiya

PSIXOLOGIYA FANLARI BO‘YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2025

UO‘K: 796.83:01:159.9:37

Falsafa fanlari doktori (PhD) dissertatsiyasi avtoreferati mundarijasi

Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD)

Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD)

Quvvatova Zilola Risqul qizi
Bokschilarda o‘zini-o‘zi boshqarishning
psixologik xususiyatlari..... 3

Кувватова Зилола Рискул қизи
Психологические особенности .
самоконтроля у боксеров..... 23

Quvvatova Zilola Risqul qizi

Psychological characteristics
of self-control in boxers……..... 45

E'lon qilingan ishlar ro’yxati
Список опубликованных работ
List of published works..... 49

RESPUBLIKA SPORT TIBBIYOTI ILMIY-AMALIY MARKAZI HUZURIDAGI ILMIY DARAJALAR BERUVCHI PhD.10/30.12.2019.Tib.69.01 RAQAMLI ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH

RESPUBLIKA SPORT TIBBIYOTI ILMIY-AMALIY MARKAZI

QUVVATOVA ZILOLA RISQUL QIZI

BOKSCHILARDA O'Z-O'ZINI BOSHQARISHNING PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARI

19.00.04 – Tibbiy psixologiya

PSIXOLOGIYA FANLARI FALSAFA DOKTORI (PhD) DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI

TOSHKENT – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O‘zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasida B2023.1.PhD/P456 raqami bilan ro‘yxatga olingan.

Dissertatsiya Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o‘zbek, rus, ingliz (rezyume)) Ilmiy kengash veb-sahifasida (www.sportmed.uz) va «ZiyoNet» Axborot-ta’lim portalida (www.ziyonet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbar:	**Nishanova Zamira Taskarayevna** psixologiya fanlari doktori, professor
Rasmiy opponentlar:	**Abdurasulov Rustam Abduraimovich** psixologiya fanlari doktori, professor
	Arziqulov Dilshod Ne’matovich psixologiya fanlari doktori, professor
Yetakchi tashkilot:	**Toshkent davlat Sharqshunoslik universiteti**

Dissertatsiya himoyasi Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazii huzuridagi PhD.10/30.12.2019.Tib.69.01 raqamli Ilmiy kengashning 2025-yil «___» _____ kuni soat _____dagi majlisida bo‘lib o‘tadi. (Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, Botir Zokirov ko‘chasi, 6-uy, 3-qavat. Majlislar zali. Tel.: (+99871) 241-38-03; faks: (+99871) 241-30-93; e-mail: medsport@mail.com).

Dissertatsiya bilan Respublika sport tibbiyoti ilmiy-amaliy markazining Axborot-resurs markazida tanishish mumkin. (_____ raqam bilan ro‘yxatga olingan.) (Manzil: 100027, Toshkent shahri, Shayxontoxur tumani, Botir Zokirov ko‘chasi, 6-uy, 3-qavat. Majlislar zali. Tel.: (+99871) 241-38-03; faks: (+99871) 241-30-93

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil «____» _____ da tarqatildi.
(2025-yil «____» _____ dagi_____raqamli reestr bayonnomasi).

I.R.Mavlyanov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash raisi, tibbiyot fanlari doktori, professor

D.E.Mahmudov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash ilmiy kotibi, tibbiyot fanlari doktori, katta ilmiy xodim

A.A. Xadjimetov
Ilmiy darajalar beruvchi ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengash qoshidagi ilmiy seminar raisi, biologiya fanlari doktori,professor

KIRISH (falsafa doktori (Phd) dissertatsiyasi annotatsiyasi)

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Jahonda sport inson hayoti uchun jismonan, psixologik, ijtimoiy ahamiyatli eng ommalashgan faoliyat sifatida tan olingan. Sportning barcha yo‘nalishlari o‘zining muhlislari tomonidan e’tirof etilib, sport bilan shug‘ullanishga intilish tendensiyasi kuchayib bormoqda. «Boks dunyodagi eng ommabop sport turlari ro‘yxatida 11-o‘rinni egallab, unga 59,6% muhlislar qiziqish bildiradi. Bu statistika boksning ulkan mashhurligini kuchli ko‘rsatkichi bo‘lib, deyarli 60% odamlar unga qiziqish bildirmoqda. Bu sportning jahon miqyosida keng qamrovi borligi va jamiyatning barcha qatlamlari vakillarining e’tiborini jalb qila olishidan dalolat beradi. Ushbu statistika boksning mashhurligi statistikasi haqidagi blog postiga kiritish uchun muhim dalildir, chunki u sportning keng tarqalgan jozibadorligini aniq ko‘rsatib beradi»[1]. Sport natijalarining barqaror o‘sishi, jismoniy va neyropsixik yuklamalarning hajmi va intensivligi, ekstremal faollik darajasining ortishi, ayniqsa raqobatbardosh bo‘lgan sport faoliyati uchun o‘z-o‘zini boshqarish xususiyatlarini o‘rganish yo‘nalishlari bo‘yicha tizimli ishlar amalga oshirish dolzarb vazifa hisoblanadi.

Jahon miqyosidagi standartlarda sportchilardan ongli boshqaruv, hissiy nazorat, kuchli iroda, g‘alabaga olib boruvchi qat’iyat va ishonch talab etiladi. Bunday xususiyatlar va qobiliyatlarni shakllantirish uchun bokschining bo‘lajak musobaqalarga boshlang‘ich tayyorgarligi turli xil modellar, standartlardan foydalanish, me'yoriy qoidalarga amal qilish, ideomotor tayyorgarlikdan foydalanish va shaxsiy taktik rejasi ustidan maxsus ongli boshqaruvni o‘z ichiga olgan psixologik tayyorgarlik dasturlarini ishlab chiqish bilan bog‘liq masalalarni tadqiq etish muhim ahamiyat kasb etmoqda. Bu esa sportchilarni maqsadlarni aniqlash, ularga erishishda samarali strategiyalarni ishlab chiqishda, stress va musobaqa bosimini yengish uchun zarur bo‘lgan psixologik resurs bilan ta’minlashda, o‘z faoliyatini tahlil qilish va baholashda, jamoada samarali ishlashga tayyorlash, shaxsiy hayotda hamda umumiy muvafaqqiyatga erishishida muhim ahamiyatga ega.

Mamlakatimizda so‘ngi yillarda yoshlarning sport bilan shug‘ullanishiga keng imkoniyat yaratish, jismonan va ruhan yetuk qilib tarbiyalash borasida keng islohatlar olib borilmoqda. Bulardan, Yangi O‘bekiston taraqqiyot strategiyasida belgilangan 67-maqsadida: «Jismoniy tarbiya va sport bilan muntazam shug‘ullanadigan aholisini 2026-yilda 33% ga oshirish, respublika yoshlari o‘rtasida milliy sport turlarini ommalashtirish, milliy sport turlari va xalq o‘yinlarini rivojlantirish, … va yoshlar sportini ommaviy rivojlantirish uchun shart-sharoitlar yaratish»[2] masalalari asosiy vazifalar sifatida belgilandi. Bu har tomonlama yetuk yoshlarni tarbiyalashda sportning keng tarqalgan ommaviy turi boksga jalb qilish, bokschilarning musobaqalarga tayyorgarlik jarayonlarida o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatlarini rivojlantirishda yangicha ilmiy yondashuv asosida ilmiy-amaliy tadqiqotlarni amalga oshirish va nazariy yechimlarni topish imkoniyati yaratildi.

[1] https://blog.gitnux.com/boxing-popularity-statistics

[2] O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo’ljallangan Yangi O’zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to’g’risida» gi Farmoni, https://lex.uz/docs/5841063?ONDATE2=29.01.2022

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son «2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida», 2020-yil yanvardagi PF-5924-son «O‘zbekiston Respublikasi jismoniy tarbiya va sportni yanada takomillashtirish va ommalashtirish chora-tadbilari to‘g‘risida» Farmonlari, 2022-yil 6-iyundagi PQ-268-son «Davlat sport ta’limi muassasalari faoliyatini mutlaqo yangi tizim asosida tashkil qilish chora-tadbirlari to‘g‘risida», 2021-yil 5-noyabrdagi PQ-5279-son «Sport ta’lim tizimini tubdan takomillashtirish orqali olimpiya va paralimpiya sport turlari bo‘yicha sportchilar zaxirasini shakllantirish sifatini yanada oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida»gi Qarorlari va ushbu sohaga aloqador normativ-huquqiy hujjatlarda belgilangan strategik vazifalarni amalga oshirishda maskur dissertatsiya tadqiqoti muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqot respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining asosiy ustuvor yo‘nalishlariga mosligi. Maskur tadqiqot Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining I. «Axborotlashgan jamiyat va demokratik davlatning ijtimoiy, huquqiy, iqtisodiy, madaniy, ma’naviy-ma’rifiy rivojlanishida, innovatsion g‘oyalar tizimini shakllantirish va ularni amalga oshirish yo‘llari» ustuvor yo‘nalishi doirasida bajarilgan.

Muammoning o‘rganilganlik darajasi. Mamlakatimiz olimlaridan D.N.Arziqulov, G.S.Aripova, R.Z.Asamova, Sh.A.Eshmetov, R.Z.Gaynutdinov, B.N.Sirliyev, A.A.Zakirov va boshqalar tomonidan shaxsning psixologik xususiyatlari va kasbiy fazilatlari shakllanishi, shaxsning iroda va motivatsiyasi, o‘z-o‘zini nazorat qilish va boshqarish masalalari ilmiy tadqiq etilgan. Shu bilan birga R.A.Abdurasulov, K.G.Atabekova, O.T.Baxromov, F.T.Egamberdiyev Z.H.Fayziyev, Z.E.Gaziyeva, A.M.Nazarov, E.N.Sirliyev, A.U.Xaitov va boshqalar tomonidan sportchi shaxsi hamda sport faoliyati bilan bog‘liq psixologik, ijtimoiy psixologik xususiytlari o‘rganilgan. Lekin bokschilarning o‘z-o‘zini boshqarishni rivojlantirishning psixologik ta’minotini ilmiy tadqiq etishga qaratilgan izlanishlar olib borilmagan.

Mustaqil Davlatlar Hamdo‘stligi mamlakatlari olimlaridan D.S.Bakunyayev P.G.Deminov, A.D.Ishkov, S.A.Igumnov, A.V.Karpov, A.S.Kolobova, O.A.Konopkin, S.V.Leonov, V.N.Morosonova, O.G.Marlova, L.D.Osnovi, N.M.Peysahova, L.D.Stolyarko, I.V.Sudenkov, T.B.Tarasova, D.A.Vinogradov, D.A.Xaydar, N.S.Shashkina, N.S.Chashkina va boshqalar tomonidan o‘rganilgan.

Uzoq xorij olimlaridan R.M.Acharryya, J.D.Ashley, J.M.Baas, A.D.Baddeley, B.L.Baddeley, T.F.Denson, M.T.Galliot, J.J.Gross, T.A.Green, W.Hofman, R.J.Hankox, J.E.Joullie, R.A.Karelova, J.M.Kellavan, A.V.Logue, T.E.Moffitt, S.S.Manz, B.B.Meyer, A.H.Naylor, L.P.Nesbit, M.M.Oaten, P.S.Optiz, K.L.Santesso, P.E.Simonetti, H.P.Sims, R.F.Stillman, J.R.Svinth, L.A.Schmitd, M.Taylor, H.L.Urry, R.J.Vanlieshout, E.A.Vargas, Y.J.Zoller, H.L.Urry, A.P.Shimamura va boshqalar turli sport sohalarida ilmiy izlanishlar olib borishgan.

Tadqiqotning dissertatsiya bajarilgan oliy ta’lim va ilmiy-tadqiqot muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlari rejalari bilan bog‘liqligi. Dissertatsion tadqiqot Respublika tibbiyoti ilmiy -amaliy markazi ilmiy tadqiqot ishlari rejasiga muvofiq PZ20170928597 -raqamli «Sport natijalarini prognozlash va o‘quv mashq dasturlarini muqobillash uchun sportchilar fiziologik holatini matematik modelini yaratish» mavzusidagi amaliy loyiha doirasida bajarilgan (2018-2020y.y.).

Tadqiqotning maqsadi bokschilarda o‘z-o‘zini boshqarishning psixologik xususiyatlarini o‘rganish asosida tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

bokschilarda o‘z-o‘zini boshqarishning jins, yosh farqlarini tadqiq etish;

bokschilarda o‘z-o‘zini boshqarish va hissiy holatlar orasidagi bog‘lanishlarni aniqlash;

bokschilarda o‘z-o‘zini boshqarishga ta’sir etuvchi omillarni aniqlash;

bokschilarda o‘z-o‘zini boshqarishni rivojlantiruvchi dasturni ishlab chiqish va uning samaradorligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida O‘zbekiston Boks federatsiyasi milliy terma jamoasi tarkibiga kiruvchi 81 nafar, O‘zbekiston jismoniy tarbiya va sport universtietidan 26 nafar, ja’mi 107 nafar bokschilar jalb etildi. Shundan 56 nafari ayollar, 51 nafari erkaklarni tashkil etadi.

Tadqiqotning predmeti bokschilarda o‘z-o‘zini boshqarish jarayonining nazariy asoslari va ahamiyati, o‘z-o‘zini boshqarish ko‘rsatkichlarini o‘lchash va baholash metodlari, o‘z-o‘zini boshqarishni rivojlantiruvchi omillari va ushbu qobiliyatning sport faoliyatiga ta’sirini o‘rganishga qaratilgan.

Tadqiqotning usullari. Tadqiqotda A.V.Zverkova, E.I.Eidmanning «Ixtiyoriy o‘z-o‘zini boshqarish» testi, V.I.Morosanovaning «Xulq-atvorda o‘z-o‘zini boshqarish uslubi», G.Ayzenkning shaxs tipi (temperament) so‘rovnomalari, Y.Xaninning shaxsiy xavotirlanishni aniqlash» metodikasi, Dembo-Rubinshteynning «O‘z-o‘zini baholash», T.Elersning «Muvaffaqiyatga intilish motivatsiyasini aniqlash», T.Elersning, «Mag‘libiyatdan qochish motivatsiyasini aniqlash», K.Maslach, S.Jekson, N.Vodopyanovning «Kasbiy charchoqni aniqlash» metodikalari, matematik-statistik metodlardan foydalanildi.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi:

bokschilarning o‘z-o‘zini boshqarishida yosh va jins farqlari aniqlanganligi tufayli «irodaviy boshqaruv», «qat’iylik», «rejalashtirish», «modellashtirish», «dasturlash», «moslashuvchanlik» kattalar jamoasida, «mustaqillik» esa yoshlar jamoasida, o‘z-o‘zini boshqarishida «rejalashtirish», «dasturlash», «umumiy o‘z-o‘zini boshqarish» erkaklar jamoasida ustuvor namoyon bo‘lishidagi differensial farqlar aniqlangan.

boks jamoalarining emotsional holatlaridagi differensial farqlarga ko‘ra shaxsiy xavotirlanish, hissiy charchoq va depersonalizatsiya hamda irodaviy va xulqiy o‘z-o‘zini boshqarishi orasida manfiy, yutuqlarning kamayishi orasida esa musbat bog‘lanishning mavjudligi isbotlangan.

bokschilarda o‘z-o‘zini boshqarishi hamda g‘alabaga intilish va mag‘lubiyatdan qochish motivatsiyasi, intilish darajasi orasida ijobiy bog‘lanish, xolerik va melanxolik temperamenti orasida salbiy aloqadorlik mavjudligi asoslangan.

bokschilarda o‘z-o‘zini boshqarishni rivojlantirishda emotsional, irodaviy, kognitiv va konativ sohalarni nazorat qilishga qaratilgan integrativ psixotexnologiyalarni tizimli kombinatsiyasini qo‘llash muhimligi tufayli motivatsional sohaga ta’sir etish zarurati asoslangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

«Sportchilarda o‘z-o‘zini boshqarish qobiliyatini rivojlantirish» uslubiy tavsiyanoma ishlab chiqildgan;

«G‘alabangga ishon!» nomli rivojlantiruvchi dastur ishlab chiqildgan;

O‘zbekiston Boks milliy terma jamoasi yozgi Olimpiada o‘yinlarida 5 ta oltin medalni qo‘lga kiritildgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Tadqiqotda to‘plangan ma’lumotlarning ishonchliligi, avvalo, tadqiqot obektlarining maqsadga mos tanlanganligi, ilmiy tadqiqotda qatnashgan respondentlarning yetarlicha reprezentativligi, tanlangan metodlarning validligi va ishonchliligi, olingan empirik miqdorlarning matematik-statistikaning ishonchli usullari yordamida tahlil qilinganligi, bunda zamonaviy elektron dasturiy vositalar qo‘llangani, izlanishlar aniq va reja bosqichlarda bir-birini to‘ldiruvchi usullar yordamida amalga oshirilganligi bilan belgilanadi. Shuningdek, tadqiqot davomida shakllantirilgan ishlab chiqilgan xulosa, tavsiyalarning amaliyotga joriy etilgani, olingan natijalarning vakolatli tashkilotlar tomonidan tasdiqlangani bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati. Tadqiqot natijalarining ilmiy ahamiyati shundaki, bokschi yoshlarning musobaqa oldi va musobaqa jarayonida o‘z-o‘zini boshqarishining mazmuniy komponentlari ochib berilganligi va ishlab chiqilganligi bilan belgilanadi, o‘rganilayotgan hodisa haqida ilmiy tasavvurni aniqlashtiradi tadqiqot olib borish uchun jamlangan nazariy va amaliy ma’lumotlar, metodikalar majmui va korreksion dastur jamlanmasi, tadqiqot natijalari va xulosalari sport psixologiyasi, sport pedagogikasi, sport psixodiagnostikasi, sport psixokorreksiyasi, psixologik konsultatsiya, psixologik trening, sportchilarni nazariy va amaliy jihatdan tarbiyalash, ularni musobaqaga jismoniy va psixologik tayyorlash yo‘nalishlarini nazariy va amaliy jihatdan tasdiqlanganligi bilan asoslanadi.

Tadqiqot natijalarining amaliy ahamiyati tadqiqotdan olingan empirik natijalar, keltirilgan xulosa va tavsiyalardan sportchilarni musobaqaga tayyorlash borasida konseptual nazariyani shakllantirishda, shuningdek bokschi yoshlar sport muvaffaqiyatiga erishishida ilmiy tadqiqot olib borayotgan psixolog, pedagog, jismoniy tarbiya o‘qituvchisi va murabbiylarga tavsiyalar berishda, sport seksiyalarida olib boriladigan mashg‘ulotlar jarayonida O‘zbekiston Davlat jismoniy tarbiya va sport universiteti boks kafedrasi ustoz murabbiylari hamda «Boks federatsiyasi treninglari», boks to‘garaklari rahbarlari uchun, shuningdek sportdagi amaliy psixologlar malakasini oshirishda keng foydalanish uchun amaliy tavsiyalar ishlab chiqish bilan izohlanadi.

Tadqiqotning natijalarining joriy qilinishi. Bokschilarda o‘z-o‘zini boshqarishning psixologik xususiyatlarini o‘rganish bo‘yicha olingan ilmiy tadqiqot ishlari natijalari asosida:

Birinchi ilmiy yangilik: bokschilarning o‘z-o‘zini boshqarishida yosh va jins farqlari aniqlanganligi tufayli «irodaviy boshqaruv», «qat’iylik», «rejalashtirish», «modellashtirish», «dasturlash», «moslashuvchanlik» kattalar komandasida, «mustaqillik» esa yoshlar jamoasida, o‘z-o‘zini boshqarishida «rejalashtirish», «dasturlash», «umumiy o‘z-o‘zini boshqarish» erkaklar jamoasida ustuvor namoyon bo‘lishidagi differensial farqlar aniqlangan. Birinchi ilmiy yangilikning ilmiy ahamiyati o‘z-o‘zini boshqarish yosh ulg‘ayishi bilan oshib boradigan dinamik jarayon ekanligi aniqlandi. Ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi: olingan natijalar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o’quv-ilmiy markazining PM-304 buyrug‘iga asosan (Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 24-yanvardagi PM-304-a son ma’lumotnoma), O‘zbekiston Taekvondo WT assotsiatsiyasining 2024-yil 1- martdagi 4.24-son

buyrug‘iga asosan, O‘zbekiston velosiped sporti federatsiyasining 2024-yil 20-son buyrug‘iga asosan sportchilar amaliyotiga joriy etilgan. Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi O‘zbekiston Boks milliy terma jamoasi yozgi Olimpiada o‘yinlariga 11 ta yo‘llanmani qo‘lga kiritishdi;

Ikkinchi ilmiy yangilik: boks jamoalarining emotsional holatlaridagi differensial farqlarga ko‘ra shaxsiy xavotirlanish, hissiy charchoq va depersonalizatsiya hamda irodaviy va xulqiy o‘z-o‘zini boshqarishi orasida manfiy, yutuqlarning kamayishi orasida esa musbat bog‘lanishning mavjudligi isbotlangan. Ilmiy yangilikning ilmiy ahamiyati erkaklarda o‘z-o‘zini boshqarish yuqori ekanligi aniqlandi. Ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi: olingan ilmiy xulosalar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o’quv-ilmiy markazining PM-304 buyrug‘iga asosan (Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 24-yanvardagi PM-304-a son ma’lumotnoma), O‘zbekiston Taekvondo WT assotsiatsiyasining 2024-yil 11-martdagi 4.24-son buyrugiga asosan, O‘zbekiston velosiped sporti federatsiyasining 2024-yil 20-son buyrug‘iga asosan sportchilar amaliyotiga joriy etilgan. Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi O‘zbekiston Boks milliy terma jamoasi yozgi Olimpiada o‘yinlarida 5 ta oltin medalni qo‘lga kiritdi;

Uchinchi ilmiy yangilik:bokschilarda o‘z-o‘zini boshqarishi hamda g‘alabaga intilish va mag‘lubiyatdan qochish motivatsiyasi, intilish darajasi orasida ijobiy bog‘lanish, xolerik va melanxolik temperamenti orasida salbiy aloqadorlik mavjudligi asoslangan. Ilmiy yangilikning ilmiy ahamiyati bokschilarga salbiy hissiy holatlarga berilmaslik hamda g‘alabaga intilish motivatsiaysini kuchaytirish zarurligi aniqlandi. Ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi: olingan ilmiy xulosalar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining PM-304 buyrug‘iga asosan (Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 24-yanvardagi PM-304-a son ma’lumotnoma), O‘zbekiston Taekvondo WT assotsiatsiyasining 2024-yil 11-martdagi 4.24-son buyrugiga asosan, O‘zbekiston velosiped sporti federatsiyasining 2024-yil 20-son buyrug‘iga asosan sportchilar amaliyotiga joriy etilgan. Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi bunda sportchilar o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishishi ortadi.

To‘rtinchi ilmiy yangilik: bokschilarda o‘z-o‘zini boshqarishni rivojlantirishda emotsional, irodaviy, kognitiv va konativ sohalarni nazorat qilishga qaratilgan integrativ psixotexnologiyalarni tizimli kombinatsiyasini qo‘llash muhimligi tufayli motivatsional sohaga ta’sir etish zarurati asoslangan. Ilmiy yangilikning ilmiy ahamiyati biz tomonimizdan ishlab chiqilgan trening dasturi samarali bo‘lganligi tufayli nafaqat bokschilarga balki boshqa sport turlariga ham qo‘llash foydali ekanligidan dalolat beradi. Ilmiy yangilikning amaliyotga joriy qilinishi: olingan ilmiy xulosalar Nizomiy nomidagi Toshkent davlat pedagogika universiteti huzuridagi Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining PM-304 buyrug‘iga asosan, O‘zbekiston Taekvondo WT assotsiatsiyasining 2024- yil 1-martdagi 4.24-son buyrugiga asosan (Psixologiya o‘quv-ilmiy markazining 2025-yil 24-yanvardagi PM-304-a son ma’lumotnoma), O‘zbekiston velosiped sporti federatsiyasining 2024-yil 20-son buyrug‘iga asosan sportchilar amaliyotiga joriy etilgan. Ilmiy yangilikning ijtimoiy samaradorligi o‘tgan yilga nisbatan sportchilar o‘z-o‘zini boshqarishi natijasida miqdor va sifat jihatdan ijobiy natijalarga erishildi.

Tadqiqotning natijalarining sinovdan o‘tkazilishi. Tadqiqot natijalari 3 ta xalqaro va 2 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida muhokamadan o‘tkazilgan.

Tadqiqotning natijalarining e'lon qilinishi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 11 ta, jumladan, O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy jurnallarda 6 ta (4 ta respublika jurnallari, 2 ta xorij jurnalida) maqolalar nashr etilgan.

Dissertasiyaning tuzilishi va hajmi. Dissertatsiya ishi kirish, uchta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati hamda ilovalardan iborat. Tadqiqot ishining hajmi adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan tashqari 116 sahifani tashkil etadi.

DISSERTASIYANING ASOSIY MAZMUNI

Dissertatasiyaning kirish qismida mavzuning dolzarbligi va zarurati asoslangan, muammoning o'rganilganlik darajasi yoritilgan, tadqiqot maqsadi va vazifalari, obyekt shakllantirilgan, ilmiy yangiligi bayon qilingan, olingan natijalarning ishonchligi asoslangan, nazariy va amaliy ahamiyati, natijalarning amaliyotga joriy qilinishi yoritilgan, e'lon qilingan ishlar, dissertatsiyaning tuzilishi borasida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning birinchi bobi **«Sportchilarda o'z-o'zini boshqarish psixologik tadqiqot predmeti sifatida»** deb nomlanadi. Unda xorij, MDH va o'zbek psixologlarining o'z-o'zini boshqarish va sport psixologiyasi bo'yicha olib borilgan tadqiqotlari nazariy tahlil qilingan.

Dissertatsiyaning ikkinchi bobi **«O'z-o'zini boshqarish muammosining empirik o'rganilganligi»** deb nomlanib, birinchi paragrafida tadqiqot metodologiyasi va metodikalari tavsiflangan. «Bokschilarda o'z-o'zini boshqarishning namoyon bo'lishida jins va yosh farqlari» deb nomlangan ikkinchi paragrafida A.V.Zverkova va E.V.Eidmanning irodaviy o'zini o'zi boshqarish darajasini aniqlash testi bo'yicha bokschilarda holat quyidagicha edi.

1-jadval

Bokschilarda irodaviy o'z-o'zini boshqarishning namoyon bo'lishi (n=107)

O'z-o'zini boshqarish darajalari	%
O'rtachadan past	24,2 %
O'rtachadan yuqori	75,8%

Tadqiqotda ishtirok etgan barcha sinaluvchilarimizning 24,2 % da o'z-o'zini boshqarishning past darajasi 75,8 % da esa o'rtachadan yuqori natijalar olindi. Yuqori natija olgan bokschilarga hissiy barqarorlik, mustaqillik, faollik kabilar xos. Ularga xotirjamlik, o'ziga ishonch, niyatlarning barqarorligi, fikrlarning realligi, yuksak burch hissi xos. Shuningdek, ularga ijtimoiy- ijobiy yo'nalganlik, o'z xatti-harakatlarini boshqarish xos.

2-jadval

Bokschilarda irodaviy o'z-o'zini boshqarishning namoyon bo'lishida jins farqlari

O'z-o'zini boshqarish darajalari	**Ayol bokschilarda, % (n=56)**	**Erkak bokschilarda, % (n=51)**
O'rtachadan past	23,2 %	25,5 %
O'rtachadan yuqori	76,8%	74,5 %

Tadqiqotda ishtirok etgan ayol bokschilarimizning 23,2 % da o‘z-o‘zini boshqarishning past darajasi 76,8 % da esa o‘rtachadan yuqori natijalar olindi. Erkaklarda esa shunga yaqin natijalar olingan, ya’ni 25,5 % erkak bokschilarda irodaviy o‘z-o‘zini boshqarishning quyi darajasi, 74,5 % esa yuqori darajasi aniqlandi.

Umumiy ravishda bokschilarning to‘rtdan bir qismida o‘z-o‘zini boshqarishning past darajasi aniqlangan.

Biz tadqiqotda irodaviy o‘z-o‘zini boshqarishning yosh farqlarini aniqlash vazifasini ham qo‘ygan edik, buning uchun tadqiqotning asosiy metodikasi bo‘lmish A.V.Zverkova, E.I.Eidmanning «Irodaviy o‘z-o‘zini boshqarish» metodikasi natijalarini yosh kesimi bo‘yicha taqqoslashga harakat qildik, natijalar quyidagi 3-jadvalda keltiriladi. Irodaviy o‘z-o‘zini boshqarishning umumiy shkalasi bo‘yicha o‘rta arifmetik qiymati yoshlar komandasida 15,07 bo‘lsa, kattalar komandasida bu ko‘rsatkich 17,8 ga teng (t=-2,27; p≤0,05).

Bundan kattalarda yoshlarga qaraganda o‘z-o‘zini boshqarishi yuqori darajada shakllanganligini kuzatish mumkin. Kattalar turli vaziyatlarda o‘z xulq-atvorini boshqara oladilar, o‘z harakatlari va holatlarini nazorat qila oladilar.

Qat’iylik shkalasi bo‘yicha o‘rta arifmetik qiymati yoshlar komandasida 10,53 bo‘lsa, kattalar komandasida bu ko‘rsatkich 13 ga teng (t=-3,26; p≤0,01). Qat’iylik ham kattalarda yuqori ekanligi ko‘rinib turibdi.

3-jadval

Erkak bokschilarda o‘z-o‘zini boshqarishning yosh xususiyatlariga ko‘ra farqlari (Styudent mezoni bo‘yicha)

Metodikalar va ularning shkalalari		**M1 (20 yoshgacha)**	**M2 (20 yoshdan kattalar)**	**t – statistik farq ko‘rsatkichi**
Irodaviy o‘z-o‘zini boshqarish	Umumiy shkala	15,07	17,8	-2,27**
	Qat'iylik	10,53	13	-3,26***
Xulq-atvorni boshqarish	Rejalashtirish	6	7	-2,88***
	Modellashtirish	5,05	6,6	-2,65**
	Moslashuvchanlik	6,58	7,5	-2,44**
	Mustaqillik	5,97	4,5	-2,65**

Izoh: * -p≤0,10; ** -p≤0,05; *** -p≤0,01

Rejalashtirish shkalasi bo‘yicha yoshlar jamoasining o‘rta arifmetik qiymati 7 ga teng bo‘lsa, kattalar komandasida bu ko‘rsatkich 6 ga teng (t=-2,88; p≤0,01).

Modellashtirish shkalasi bo‘yicha o‘rta arifmetik qiymati yoshlar komandasida 5,05 bo‘lsa, kattalar komandasida bu ko‘rsatkich 6,6 ga teng (t=-2,65; p≤0,05).

Moslashuvchanlik shkalasi bo‘yicha o‘rta arifmetik qiymati yoshlar komandasida 6,58 bo‘lsa, kattalar komandasida bu ko‘rsatkich 7,5 ga teng (t=-2,44; p≤0,05).

Mustaqillik shkalasi bo‘yicha o‘rta arifmetik qiymati yoshlar komandasida 5,97 bo‘lsa, kattalar komandasida bu ko‘rsatkich 4,5 ga teng (t=-2,65; p≤0,05). O‘z-o‘zini boshqarishning aksariyat shkalalarida kattalar jamoasining ko‘rsatkichlari yoshlar jamoasinikidan yuqori ekanligi ko‘rinib turibdi. Demak, bundan kattalar yoshlarga qaraganda o‘zlarini qiyin vaziyatlarda yaxshiroq boshqaradilar, degan xulosaga kelish o‘rinli. Faqat mustaqillik shkalasida yoshlarning natijalari yuqori ekanligi ko‘rininb turibdi. Bizningcha bu, o‘spirinlik davrida mustaqillikka intilish kuchli namoyon bo‘lishi bilan bog‘liq bo‘lsa kerak.

Ayol sportchilarda ham irodaviy o‘z-o‘zini boshqarishning yosh xususiyatlari birlamchi statistik metodlardan o‘rta arifmetik qiymatlari qiyoslandi va farqning ahamiyatliligi Styudent mezoni yordamida tadqiq etildi, olingan natijalarni quyidagi 4-jadvalda keltirishga harakat qildik. Ayollar jamoasida irodaviy o‘z-ozini boshqarish metodikasining faqat bir shkalasida ahamiyatli farqlar aniqlangan, boshqa shkalalarda esa ahamiyatli farqlar aniqlanmagan.

«Qat’iylik» shkalasi bo‘yicha o‘rta arifmetik qiymati yoshlar komandasida 11,35 bo‘lsa, kattalar komandasida bu ko‘rsatkich 14,4 ga teng (t=-2,76; p≤0,01). Qat’iylik ham kattalar yoshli ayollarda ham yuqori ekanligi ko‘rinib turibdi.

4-jadval

Ayol sportchilarda o‘z-o‘zini boshqarishning yosh xususiyatlariga ko‘ra farqlari (Styudent mezoni bo‘yicha)

Metodikalar va ularning shkalalari		M_1 (20 yoshgacha)	M_2 (20 yoshdan kattalar)	t – statistik farq ko‘rsatkichi
Irodaviy o‘z-o‘zini boshqarish	Umumiy shkala	16	16,8	-0,56
	Qat'iylik	11,35	14,4	-2,76***
	Nazorat	8,06	6,6	0,99
Xulq-atvorni boshqarish	Dasturlash	5,70	7	-2,64**
	Mustaqillik	5,62	6,6	-3,04***
	Umumiy o‘z-o‘zini boshqarish	28,08	32	-3,74***

Izoh: *- p≤0,10; ** -p≤0,05; ***- p≤0,01.

Xulq-atvorni boshqarish metodikasining «Dasturlash» shkalasi o‘rta arifmetik qiymati yoshlar komandasida 5,7 bo‘lsa, kattalar komandasida bu ko‘rsatkich 7 ga teng (t=-2,64; p≤0,05).

Mustaqillik shkalasi bo‘yicha o‘rta arifmetik qiymati yoshlar komandasida 5,62 bo‘lsa, kattalar komandasida bu ko‘rsatkich 6,6 ga teng (t=-3,04; p≤0,001). Umumiy o‘z-o‘zini boshqarish shkalasi bo‘yicha o‘rta arifmetik qiymati yoshlar komandasida 28,08 bo‘lsa, kattalar komandasida bu ko‘rsatkich 32 ga teng (t=-3,74; p≤0,01).

Shaxsning o‘z-o‘zini boshqarishi uning hissiy holatlariga qanchalik bog‘liqligi masalasi bizni qiziqtirdi. Buning uchun Pirson korrelyatsiya koeffitsenti yordamida irodaviy o‘z-o‘zini boshqarish, xulq-avtorni boshqarish hamda

xavotirlanish darajasi, kasbiy kuyganlik orasidagi aloqadorliklar o‘rganildi (5-jadval).

Quyidagi jadvalda irodaviy o‘z-o‘zini boshqarishning umumiy shkalasi bilan shaxsiy xavotirlanish orasida manfiy bog‘lanish aniqlandi (r=-0,44; p≤0,01). Yoshlar jamoasida shaxsiy xavotirlanish qanchalik yuqori bo‘lsa, o‘zini o‘zi boshqarish shunchalik kam bo‘ladi. Yoki aksincha, o‘zini o‘zi boshqarishning yuqori bo‘lishi shaxsiy xavotirlanishni shunchalik kamaytiradi. Shaxsiy xavotirlanishi bor yoshlar o‘zlarini past baholaydi**.**

Xuddi shuningdek, «qat’iylik» va shaxsiy xavotirlanish orasida ham manfiy aloqadorlik kuzatildi (r=-0,39; p≤0,01). Bokchsilarda shaxsiy xavotirlanish qanchalik kam bo‘lsa, qat’iylik shunchalik kuchli bo‘ladi. Qat’iylik qanchalik kam bo‘lsa, shaxsiy xavotirlanish shunchalik ko‘p bo‘ladi. Shaxsda shaxsiy xavotirlanishning bo‘lishi, qat’iylikni kamaytirar ekan.

Hissiy charchoq bilan o‘z-o‘zini boshqarishning umumiy shkalasi orasida manfiy bog‘lanish aniqlandi (r=-0,43; p≤0,01).

5-jadval

Yoshlar jamoasida (ayollar) o‘z-o‘zini boshqarish darajasining hissiy holatlar bilan o‘zaro aloqadorligi (n=39)
(Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti asosida)

Metodikalar	**Irodaviy o‘z-o‘zini boshqarish**			**Xulq-atvorni boshqarish**	
Shkalalar	**Umumiy shkala**	**Qat'iylik**	**O‘zini boshqarish**	**Modellash-tirish**	**Natijalarni baholash**
Shaxsiy xavotirlanish	-0,44***	-0,39***	-0,28	-0,18	-0,19
Hissiy charchoq	-0,43***	-0,22	-0,44***	-0,43***	-0,16
Depersonalizatsiya	-0,45***	-0,32**	-0,32**	-0,26	-0,42***
Shaxsiy yutuqlar kamayishi	0,32**	0,35**	0,18	0,07	-0,007

Izoh: *- p≤0,10; ** -p≤0,05; *** -p≤0,01

Bokschilarda hissiy charchoq kuchli bo‘lsa, ularda o‘z-o‘zini boshqarish kamayadi. Hissiy jihatdan charchagan, hayotida stressni boshidan kechirgan bokschilarda o‘z-o‘zini boshqarish ham qiyin kechadi, bu esa o‘z navbatida musobaqa jarayonida g‘alabaga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Hissiy charchoq bilan o‘z-o‘zini boshqarishning nazorat shkalasi orasida manfiy bog‘lanish aniqlandi (r=-0,44; p≤0,01). Bokschilarda hissiy charchoq kuchli bo‘lsa, ularda o‘z-o‘zini nazorat qilish ham kamayadi. Hissiy jihatdan charchagan, hayotida stressni boshidan kechirgan bokschilarda o‘z-o‘zini nazorat qilish ham qiyin kechadi, bu esa musobaqa jarayonida g‘alabaga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Hissiy charchoq bilan xulq-atvorni boshqarishning modellashtirish shkalasi orasida manfiy bog‘lanish aniqlandi (r=-0,43; p≤0,01). Bokschilarda hissiy

charchoq kuchli bo‘lsa, ularda modellashtirish kamayadi. Hissiy jihatdan charchagan, hayotida stressni boshidan kechirgan bokschilarda modellashtirish ham qiyin kechadi, bu albatta musobaqa jarayonida g‘alabaga salbiy ta’sir ko‘rsatadi.

Depersonalizatsiya va o‘z -o‘zini boshqarishning umumiy shkalasi orasida manfiy bog‘lanish aniqlandi (r=-0,45; p≤0,01). Bokschilarda depersonalizatsiya kuchli bo‘lsa, ularda o‘z-o‘zini boshqarish kamayadi.

Depersonalizatsiya va o‘z -o‘zini boshqarishning qat’iylik shkalasi orasida manfiy bog‘lanish aniqlandi (r=-0,32; p≤0,05). Bokschilarda depersonalizatsiya kuchli bo‘lsa, ularda qat’iylik kamayadi. Depersonalizatsiya kuchsiz bokschilar boshlagan ishini oxiriga yetkazishga intiladi. Bunday bokchsilar o‘z oldilarida uchragan har qanday to‘siqni yengib, asosiy maqsad g‘alabaga erishishga bor ichki imkoniyatlarini ishga soladilar.

Depersonalizatsiya va o‘zini boshqarish shkalasi orasida manfiy bog‘lanish aniqlandi (r=-0,32; p≤0,05). Bokschilarda depersonalizatsiya kuchsiz bo‘lsa, ularda o‘zini boshqarish ortadi. O‘z-o‘zini boshqarishi kuchli sportchilarda hissiy barqarorlik, turli vaziyatlarda o‘zini tuta bilish xos. Ularga xos bo‘lgan ichki xotirjamlik, o‘ziga ishonch, noma’lumlikdan qo‘rqmaslik, yangi kutilmagan ta’sirlarni idrok qilishga tayyorlik, radikalizm va yangilikka intilish, fikrlarning erkinligi xos.

Depersonalizatsiya va natijalarni baholash shkalasi orasida manfiy bog‘lanish aniqlandi (r=-0,42; p≤0,01). Bokschilarda depersonalizatsiya kuchli bo‘lsa, ularda natijalarni baholash kamayadi. «Natijalarni baholash» shkalasi bokschilarda o‘z harkatlarining maqsadga, uning mezonlariga qat’iy mosligini angalatadi. «Natijalarni baholash» quyi bo‘lgan bokschilar xatolarini payqamaydilar, o‘z faoliyatiga, harakatlariga tanqidiy yondashmaydi. Muvaffaqiyatning sub’ektiv mezonlari barqaror emas, ish hajmining ko‘payishi natijaning, holatning yomonlashuviga darrov ta’sir qiladi.

Irodaviy o‘z-o‘zini boshqarishning umumiy shkalasi bilan «shaxsiy yutuqlarning kamayishi» shkalasi orasida musbat bog‘lanish aniqlandi (r=0,32; p≤0,05). Bokschilarda irodaviy o‘z-o‘zini boshqarish ortgani sayin «shaxsiy yutuqlarning kamayishi» ortadi. «Shaxsiy yutuqlarning kamayishi» o‘z-o‘zini baholashning pasayishi, o‘z kasbiy yutuqlarini kamaytirish, kasbiy imkoniyatlarga nisabatan salbiy ustanovka, kasbiy faoliyat sub’ektlariga nisabatan majburiyatlarni cheklashda namoyon bo‘ladi. «Shaxsiy yutuqlarning kamayishi» va «Qat’iylik» shkalasi orasida musbat bog‘lanish aniqlandi (r=0,35; p≤0,05). Qat’iylik ortgani sayin shaxsiy yutuqlar kamayib borishi ham ortishi yoshlar qizlar jamoasida aniqlandi. Bu natija esa, bizning tadqiqotdagi paradoks, deb aytsak ham bo‘ladi. Bu natijani bizningcha, yoshlarning yosh xususiyatlari, hissiy barqarorlikning kamligi bilan izohlash mumkin. Qat’iy bo‘lmagan yoshlarga o‘ziga ishonmaslik, yuqori labillik, impulsivlik xos. Bunday yoshlarga faollik va ish qobiliyatining pastligi, yuqori sezgirlik, egiluvchanlik, ixtirochilik, ijtimoiy me’yorlarni erkin talqin qilish xos.

Shunday qilib, yoshlar qizlar jamoasida shaxsiy xavotirlanish, depersonalizatsiya, hissiy charchoq kabi hissiy holatlarning barchasi o‘z-o‘zini boshqarishga salbiy ta’sir qilishi aniqlandi.

Jismoniy tarbiya instituti talabalarida o‘z-o‘zini boshqarish darajasining hissiy holatlar bilan o‘zaro aloqadorligi masalasiga ham qiziqdik. Talabalarning natijalari yuqoridagi 6-jadvalda keltirilgan.

Quyidagi jadvalda irodaviy o‘z-o‘zini boshqarishning umumiy shkalasi bilan shaxsiy xavotirlanish orasida manfiy bog‘lanish aniqlandi (r=-0,41; p≤0,05). Bokchsilarda shaxsiy xavotirlanish qanchalik ko‘p bo‘lsa, ularning o‘z-o‘zini boshqarishi shunchalik kam bo‘ladi. Yoki aksincha o‘z-o‘zini boshqarishning ortishi shaxsiy xavotirlanishning kamayishiga olib keladi. Shaxsiy xavotirlanishi yuqori bokschilarda o‘ziga va g‘alabaga ishonchni shakllantirish darkor. Agar biz bokschilarda shaxsiy xavotirlanishni kamaytirsak, ularda o‘z-o‘zini boshqarish va g‘alabaga ishonch ortadi.

6-jadval

Jismoniy tarbiya instituti talabalarida o‘z-o‘zini boshqarish darajasining hissiy holatlar bilan o‘zaro aloqadorligi (n=26)
(Pirson korrelyatsiya koeffitsiyenti asosida)

Metodikalar	**Irodaviy o‘z-o‘zini boshqarish**		**Xulq-atvorni boshqarish**		
Shkalalar	**Umumiy shkala**	**Qat'iylik**	**Modellasht-irish**	**Dasturlash**	**Moslashuv-chanlik**
Shaxsiy xavotirlanish	-0,41**	-0,53***	-0,38**	-0,39**	-0,48***
Hissiy charchoq	-0,25	-0,06	-0,03	0,02	-0,04
Depersonalizatsiya	-0,08	0,11	0,15	0,17	-0,06
Shaxsiy yutuqlar kamayishi	0,15	0,43**	0,27	0,31	0,48***

Izoh: * p≤0,10; ** p≤0,05; *** p≤0,01

Shaxsiy xavotirlanish va qat’iylik orasida manfiy bog‘lanish aniqlandi (r=-0,38; p≤0,05). Shaxsiy xavotirlanishning ortishi modellashtirishning kamayishiga olib keladi. Shaxsiy xavotirlanish va modellashtirish orasida manfiy bog‘lanish aniqlandi (r=-0,53; p≤0,01). Shaxsiy xavotirlanishning kamayishi modellashtirishning ortishiga olib keladi. Modellashtirish shkalasi bo‘yicha yuqori ko‘rsatkichlarni egallagan bokschilarga hozirgi sharoitda va kelajakda ham maqsadga erishishning zarur sharoitlarni ajrata olish, olingan natijalar qo‘yilgan maqsadlarga mosligi xos bo‘ladi.

Shaxsiy xavotirlanish va dasturlash orasida manfiy bog‘lanish aniqlandi. (r=-0,39; p≤0,05). Shaxsiy xavotirlanishning ortishi dasturlashning kamayishiga olib keladi. Dasturlash shkalasi bo‘yicha quyi ko‘rsatkichga ega bo‘lgan bokschilarga o‘z harakatlarining oqibatlarini o‘ylashni istamaslik, o‘ylay olmaslik xosdir.

Shaxsiy xavotirlanish va moslashuvchanlik orasida manfiy bog‘lanish aniqlandi (r=-0,48; p≤0,05). Shaxsiy xavotirlanishning ortishi moslashuvchanlikning kamayishiga olib keladi, yoki aksincha moslashuvchanlikning ortishi shaxsiy xavotirlanishning kamayishiga olib keladi. Yuqori moslashuvchan bokschi talabalarga barcha boshqaruv jarayonlarida plastiklikni namoyon qiladi. Bunday bokschi talablar kutilmagan holatda xulq-atvor

rejalari va dasturlarini tezda o‘zgartiradi, sharoitning o‘zgarishini tez baholab, harkat dasturini qayta quradi.

Shaxsiy yutuqlar kamayishi va qat’iylik orasida musbat bog‘lanish aniqlandi (r=0,43; p≤0,05). Qat’iylikning ortishi shaxsiy yutuqlar kamayishining ham ortishiga olib keladi. Qat’iylik shakllangan talaba bokschilar juda mehnatsevar bo‘lib, o‘z oldiga qo‘ygan maqsadlariga erishish uchun bor imkoniyatlarini ishga soladi, ulardagi eng asosiy qadriyat boshlangan ishni oxiriga yetkazishdir.

Shaxsiy yutuqlar kamayishi va moslashuvchanlik orasida musbat bog‘lanish aniqlandi (r=0,48; p≤0,01). Moslashuvchanlik yuqori bo‘lsa, shaxsiy yutuqlar ham kamayadi. Moslashuvchan talaba bokschilar erishilgan natija bilan qo‘yilgan maqsadlar mos kelmaganda bu faktni o‘z vaqtida baholab, xulq-atvorni to‘g‘rilashga harakat qiladi.

Shunday qilib, talaba bokschi qizlarda shaxsiy xavotirlanish ularning irodaviy va xulqiy o‘z-o‘zini boshqarishiga to‘g‘ridan to‘g‘ri ta’sir qiladigan omillardan biri ekanligi aniqlandi.

Dissertatsiyaning uchinchi bobi «**Sport psixologiyasida o‘z-o‘zini boshqarishning psixologik imkoniyatlari**» deb nomlanib, unda bokschilarda o‘z-o‘zini boshqarishga ta’sir etuvchi omillar tadqiq etilgan.

Quyidagi 7-jadvalda ekstraversiya va modellashtirish shkalasi orasida musbat bog‘lanish aniqlandi (r=0,35; p≤0,5). Yoshlar qizlar jamoasida ekstraversiyaning ortishi, modellashtirishning ham ortishiga olib keladi. Bokschi qizlar kirishimli bo‘lsalar, ular turli xulq-atvor modellarini yaratishga harakat qiladilar.

Ekstraversiya va moslashuvchanlik shkalasi orasida musbat bog‘lanish aniqlandi (r= 0,32; p≤0,5). Yoshlar qizlar jamoasida ekstraversiyaning ortishi, moslashuvchanlikning ham ortishiga olib keladi. Bokschi qizlar kirishimli bo‘lsalar, ular turli vaziyatlarga tez moslashishga harakat qilishadi.

Ekstraversiya va umumiy o‘z-o‘zini boshqarish shkalasi orasida ham musbat bog‘lanish aniqlandi (r= 0,33; p≤0,5). Yoshlar qizlar jamoasida ekstraversiyaning ortishi, o‘z-o‘zini boshqarishning ham ortishiga olib keladi. Bokschi qizlar kirishimli bo‘lsalar, ular turli vaziyatlarda o‘zlarini yaxshi boshqarishga harakat qilishadi.

Neyrotiklik bilan irodaviy o‘z-o‘zini boshqarishning umumiy shkalasi orasida manfiy bog‘lanish aniqlandi (r=-0,47; p≤0,1). Neyrotiklikning ortishi, irodaviy o‘z-o‘zini boshqarishning kamayishiga olib keladi. Bizga ma’lumki neyrotizm nerv tizimi labilligi ko‘rsatkichlari bilan bog‘liq.

Neyrotizm haddan tashqari asabiylik, barqaror emaslik, moslasha olmaslik, kayfiyatning tez-tez o‘zgarishi, aybdorlik va xavotirlanish hissi, tashvishlanish, depressiv reaksiyalar, diqqatning parishonxotirligi, stressli vaziyatlarda barqaror emaslik bilan xarakterlanadi. Demak, bulardan kelib chiqib salbiy hissiy holatlarning barchasi irodaviy o‘z-o‘zini boshqarishga salbiy ta’sirini o‘tkazishi haqida xulosaga kelish mumkin.

